

THE PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF THE PROBLEM-BASED LEARNING APPROACH IN THE LEARNING ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Berdiqobilova Kamola Uktamovna

Tashkent University of Applied Sciences

Student of Primary Education

E-mail: Solihasadiya@1521gmail.com. Tel: +998900389094

Bovanova Umida Abduvahobovna

Scientific supervisor: Tashkent University of Applied Sciences

Senior teacher. E-mail: (umidabovanova8@gmail.com)

Tel: +998974028797

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15542407>

ARTICLE INFO

Received: 22nd May 2025

Accepted: 28th May 2025

Online: 29th May 2025

KEYWORDS

Technology, problem-based learning, critical thinking, intellectual activity, problem situation, method, logic, idea.

ABSTRACT

This article discusses the goals and objectives of problem-based learning, which is one of the most effective teaching technologies in the current education system, the role and importance of the teacher, and at the same time the development of the student's ability to think independently, critically and creatively, the creative mastery of knowledge, skills and competencies as a result of active independent activity, and the development of mental activity.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОБЛЕМНОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Бердикобилова Камола Уктамовна

Ташкентский университет прикладных наук Студентка начального образования

E-mail: Solihasadiya@1521gmail.com Тел: +998900389094

Бованова Умида Абдувахобовна

Научный руководитель: Ташкентский университет прикладных наук

Старший преподаватель E-mail: (umidabovanova8@gmail.com)

Тел: +998974028797

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15542407>

ARTICLE INFO

Received: 22nd May 2025

Accepted: 28th May 2025

Online: 29th May 2025

KEYWORDS

Технология, проблемное обучение, критическое мышление, интеллектуальная деятельность, проблемная ситуация, метод, логика, идея.

ABSTRACT

В данной статье рассматриваются цели и задачи проблемного обучения, являющегося одной из самых эффективных технологий обучения в современной системе образования, роль и значение учителя, а также развитие у обучающегося способности мыслить самостоятельно, критически и творчески, творческое приобретение знаний, умений и компетенций в результате активной самостоятельной деятельности, развитие интеллектуальной активности.



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLOYATIDA
MUAMMOLI TA'LIM YONDASHUVINING PEDAGOGIK AHAMIYATI**

Berdiqobilova Kamola O'ktamovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail: Solihasadiya@1521gmail.com Tel: +998900389094

Bovanova Umida Abduvahobovna

Ilmiy rahbar: Toshkent amaliy fanlar universiteti

katta o'qituvchisi E-mail: (umidabovanova8@gmail.com) Tel: +998974028797

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15542407>

ARTICLE INFO

Received: 22nd May 2025

Accepted: 28th May 2025

Online: 29th May 2025

KEYWORDS

*Texnologiya, muammoli
ta'lim, tanqidiy fikrlash,
intelektual faollik,
muammoli vaziyat, usul,
mantiqiy, g'oya.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada xozirgi ta'lim tizimining eng samarali o'qitish texnologiyalaridan biri bo'lib kelayotgan muammoli ta'limning maqsadi va vazifalari, pedagogning roli va ahamiyati va shu bilan birga o'quvchining mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirish haqida so'z yuritiladi.

Bugungi kunda respublikamizning jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi uchun yoshlarning dunyoqarashini o'zgartirish, ularni bilimli va salohiyatli, zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan, mustahkam irodali etib shakllantirishni talab qiladi. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi ta'lim tizimimiz jahon talablariga javob bera oladigan, maxsus qobiliyatli, maqsadli o'quvchilarni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu maqsadni amalga oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasi yetakchi vazifani bajaradi.

Muammoli ta'lim - bu mantiqiy fikrlash operatsiyasidir. O'quvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'limdir. Muammoli ta'lim - didaktikaga tayangan holda o'quvchining bilim va tushunchalarini, dunyoqarashini shakllantirish, uning intellektual faolligini har tomonlama takomillashtirish, o'quvchining fikrlash qobiliyatini rivojlanishini ta'minlaydigan yangi tizimdir. Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur - muammoli vaziyatdan boshlanadi" - degan g'oya yotadi. Muammoli ta'lim bu o'quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo'l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta'lim darsda bir vaqtning o'zida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo'lib, u o'quvchi shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. N.G.Dayri aytganidek, darsda o'rganiladigan mazmunning murakkab qismini o'zlashtirishda o'qituvchining faoliyati qanday bo'lsa, o'quvchi faoliyatini ham shu darajaga etkazish muammoli ta'limning asosiy maqsadidir. Muammoli ta'lim - o'quvchilarning erkin fikrlashlariga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta'sir etishdir. Bunda o'quvchi diqqat bilan



tinglashi, mustaqilva yolg'iz fikrlashi, jamoa bo'lib fikrlashi, tahlil qilishi, ko'pchilik bo'li muhokama qilishi va to'plangan fikrni bayon qila olishi kerak.

Muammoli ta'lim o'qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu vaqtda kerakli samara hosil bo'lishi uchun o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o'qituvchining bo'lajak o'quv mashg'ulotiga tayyorgarligidir. Tayyorgarlik jara-yonida muammoli ta'limning barcha ko'rinishlarini hisobga olish va uni uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta'limga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o'qituvchini innovatsion ijodiy laboratoriyasining ahamiyati katta. Ana shunday qiyinchiliklar-dan biri darsni muammoli tashkil qilish va muammoni o'rganish usulini tanlash- dadir. Chunki tanlangan usul faqat o'quv materialini o'zlashtirishni ta'minlabgina qolmay, balki o'quvchilar faoliyatida mustaqillikni ham ta'minlashi zarur. Ikkinchi qiyinchilik esa muammoli ta'limni ko'rinishini aniqlashda yuzaga keladi, ya'ni o'qituvchi muammoni yechishga sinfdagi barcha o'quvchilarni jalb qiladimi yoki vazifani ayrim guruh o'quvchilariga bajartiradimi? Bu qiyinchilik o'qituvchida muammoli vaziyat va muammoning bayoni haqidagi tasavvurlarni yetishmasligidan kelib chiqadi. Uchinchi qiyinchilik esa darsda o'quvchilarni qiziqishini uyg'otish va uni uzluksiz rivojlantirib borishda ko'rinadi. Chunki o'quvchilar diqqatini bir nuqtaga muntazam to'plashga o'qituvchining tajribasi va mahorati yetmasligi mumkin.

Muammoli vaziyatda bilish faoliyatining ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi: muammoli vaziyat;

muammoni yechish yo'llarini izlash;

muammoning yechimi;


Muammoli vaziyat – psixik qiyinchilik, ziddiyatli vaziyati bo'lib, o'quvchilarni muammoli vaziyat holatiga tushirish orqali ularda fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Muammoli ta'limning o'qitish usullariga quyidagilar kiradi: tadqiqiy usul, evristik usul, muammoli vaziyatlar yaratish usuli.

Muammoli ta'limning ilk g'oyalari amerikalik psixolog va pedagog Dj.Dyui(1859-1952) tomonidan asoslanadi va XX asrning 20-30 yillarida tarqala boshladi. Dj.Dyui muammoli ta'lim asosi sifatida quyidagi yo'nalishlarni belgilaydi.

- 1) ijtimoiy;
- 2) konstruktiv;
- 3) badiiy ifodaviy;
- 4) ilmiy-tadqiqot.

Muammoli o'qitishning zaruriy sharti o'quvchilarda haqiqatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirishdir. Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon o'quvchilarga tayyor haqiqatni (yechimni) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishning ma'lum bir bosqichlari mavjud.



Muammoli vaziyatlarni hal etish muammoli ta'lim jarayonida sodir bo'ladi. Muammoli ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagog to'g'ri metodlar tanlashiga e'tibor qaratishi lozim va bu qo'llaniladigan metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog muammoli jarayonlarni muvaffaqiyatli tashkil etishda kompleks yondoshishi lozimdir.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati asosan quyidagi omillarga bog'liq:

- o'quv materialini muammolashtirish
- o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish
- ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish
- pedagog tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida samarali

Foydalanish

ko'nikmasiga ega bo'lish

- muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchilarga bayon etishdan iborat bo'ladi.

Xulosa. Muammoli ta'lim-boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashini, intellektual faolligini oshirishning eng samarali usulidir. Muammoli ta'limda o'quvchilar turli hil vaziyatlar orqali tasavvurini, dunyoqarashini shakllantirishadi. Kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan u yoki bu vaziyatlarga yechim, vaziyatdan chiqish yo'llariga javob tayyor bo'ladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning yosh davrlariga xos bo'lgan muammoli vaziyatlarni o'rtaga tashlashi kerak. Shu bilan o'quvchilar o'z qobiliyati va salohiyatlari orqali muammoga yechim topadilar.

References:

1. M.X. To'xtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik. T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y.
2. O'.J. To'ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2017 y.
3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogic texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y.
4. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Fan va texnologiya". 2019 y.



6. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y.
7. Bovanova Umida Abduvahabovna. (2021). FEATURES OF THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN A CHILD OF PRIMARY SCHOOL AGE. *Archive of Conferences*, 56-58. Retrieved from <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1373>.